



A Study of Anthroponyms in Translations of the "Baburnama" Text

Mukhtasar MUMINOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

anthroponymy,
proper names,
nicknames,
professions,
linguacultural research,
linguapragmatic research.

ABSTRACT

The article examines the role of anthroponyms in the translations of the text "Boburnoma", their linguistic classification, semantic, stylistic and compositional features, as well as their difference from other lexical combinations. The opinions of scientists and researchers who conducted scientific research on this issue were also identified. Such anthroponyms as "Chopuk", "kokhbur", "Olochikhon", "Tarkhan" were analyzed.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp34-38>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Boburnoma" matni tarjimalarida antroponimlar tadqiqi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

antroponimlar,
atoqli otlar,
taxallus,
kasb-kor,
lingvokulturologik tadqiq,
lingvopragmatik tadqiq.

Ushbu maqolada "Boburnoma" matni tarjimalarida antroponimlar rolining lingvistik tasnifi, semantik, uslubiy va yasaliş xususiyatlariga ega bo'lishi, boshqa leksik birikmalardan ajralib turishi ko'rib chiqilgan. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan olim va tadqiqotchilar qarashlari ham aniqlangan. Boburnoma matnida keltirilgan "Chopuq", "ko'hbur", "Olochixon", "Tarxon" kabi antroponimlar tahlilga tortilgan.

¹ (PhD), Acting Associate Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Alfraganus University. Tashkent, Uzbekiston.

Исследование антропонимов в переводах текста «Бабурнама»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

антропонимы,
имена собственные,
прозвища,
профессии,
лингвокультурологическое
исследование,
лингвопрагматическое
исследование.

В статье рассмотрена роль антропонимов в переводах текста «Бабур-наме», их лингвистическая классификация, семантические, стилистические и композиционные особенности, а также отличия от других лексических единиц. Также представлены мнения учёных и исследователей, занимавшихся данной проблематикой. Проанализированы такие антропонимы, как «Чопук», «Кохбур», «Олочихон», «Тархан», упоминаемые в тексте «Бабур-наме».

KIRISH

O'zbek tilshunosligida "Boburnoma" leksikasi va uning yozilish uslubi, tarixiy, adabiy, lingvistik va manbashunoslik yo'nalishida turli sohalarni qamrab olgan asar sifatida, turli rakurslarda tadqiq etilgani bizga ma'lum. "Boburnoma" nodir asar bo'lganligi uchun ham unda ifodalangan antroponimlar kitobxonni o'ziga jalb etadi. Muallif tomonidan berilayotgan kishi ismlari oddiy bir chaqiruv yoki atama sifatidagina emas, o'zidan bir necha xil shaxs kamolini ko'rsatuvchi omillar ifoda etilganligiga asarni o'qish jarayonida guvoh bo'lamiz.

"Boburnoma"da antroponimlarning berilishi Bobur so'z yuritmoqchi bo'lgan shaxs haqidagi fikrni ifodalab, boburona soddalik va ravonlik bilan aynan ifodalab berish – muallifga xos mahoratdir. Kishi ismlarini tadbil tilida berish ham mushkul vazifa hisoblanadi. Chunki Bobur tilga olgan tarixiy shaxslarning nomlari, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlaridan kelib chiqib ularning nomlarini ataydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boburona aniqlik bilan shaxslarni bir-biridan, ya'ni bir ism bilan ataluvchi kishilarni farqlash uchun ularga laqablar qo'shish orqali ism qaysi shaxsga tegishli ekanligiga aniqlik kiritadi. Birgina misolni tahlilga tortadigan bo'lsak, unda muallifning mohirona lo'ndalik bilan kishi ismini ataganligiga guvoh bo'lamiz.

Masalan, *"Andin ko'chub Samarqandning sharq tarafi Xon yurtig'a tushuldi, Samarqandtin uch ko'ruq bo'lg'ay. Qirq-ellik kun bu yurtta o'lturdi. Bu yurtta ekanda necha navbat tashqaridin-ichkaridin ko'ngullik yigitlar Xiyobonda yaxshilar chopqulashtilar. Bir martaba Xiyobonda Ibrohim Bekchik chopqulashti, yuziga choptilar"*, shu parchaga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, Ibrohim Bekchikning qilichni mahorat bilan o'ynashi boshqa yigitlar ichidan tajribali ekanligini ko'rsatish maqsadida berilayotgan tasnifda bir martadayoq yigitlar tomonidan uning yuziga qilich bilan urilganligini va shu tariqa boshqa Ibrohimlardan farqlash maqsadida unga *"Chopuq"* so'zini qo'shganini ko'ramiz. Bizga ma'lumki, Ibrohim Bekchikning yuziga yigitlar tomonidan qilich urilganligi sababli yuzida qilich izi qoladi. Muallif Ibrohim ismining yoniga *"Chopuq"* so'zini qo'shadi va shu bilan Ibrohim Bekchikka *"Chopuq"* so'zi laqab sifatida yuritila boshlaydi. Buni isboti sifatida Bobur ensiklopediyasida: *"Boburga xizmat qilgan bek. Janglarning birida yuzini qilich kesgan va shu sababli "Chopuq" laqabini olgan"* deyiladi (Bobur ensiklopediyasi, 2014). Bu bilan o'sha vaqtda sodir bo'lgan voqea natijadorligini ko'rsatib, kitobxon ongida nima uchun *"Chopuq"* so'zini qo'shganligi ham tasniflanib beriladi: *"Mundin so'ng Ibroxim*

Chopuq derlar edi". Ushbu jumlaning o'qigan o'quvchi muallifning voqea tasvirlaridan so'ng shunday xulosaga kelganligi va ibrohimga "Chopuq" laqabini berganligini tezda anglab yetishi sir emas, albatta. Oxirgi jumlaning tahlil qiladigan bo'lsak, bu tasvirdan Abulqosimning jang qurolidan ustalik bilan foydalanish mahorati yaqqol ko'rsatib berilganligini guvoh bo'lamiz. *"Yana bir navbat ham, Xiyobonda Puli – Mag'okta Abulqosim ko'hbur piyozi tegurdi. Yana bir qatla ham Xiyobonda Tarnov navohisida chopqulash bo'ldi"* (Boburnoma. 2002; 56), Abulqosim ko'hbur piyozi antroponimiga tasnif beradigan bo'lsak, *"ko'hbur"* (Ishoqov, 2008) – tog' kesuvchi, tosh-tarosh usta demakdir, muallif Abulqosimning kasb jihatidan kim ekanligini ko'rsatib berish uchun unga ta'rif berib, o'quvchini zeriktirmaslik maqsadida pragmatik xususiyatga ko'ra yondashganiga hamda Abulqosim ismiga *"ko'hbur"* so'zini qo'shib, uni kasb-korini ifodalab keltirganini ko'rishimiz mumkin.

"Boburnoma" matnida Sulton Ahmadxon haqida shunday deyiladi: *"Sulton Mahmudxonning kichik Sulton Ahmadxon edikim, Olachaxon g'a mashhurdir. Olachaxon (olachaning vajxi tasmiyasi muni derlarkim, qilmoq va mo'g'ul tili bila o'lturguchini olachi derlar). Qalmoqni necha qatla bosib, qalin kishisining qirg'on uchun olachi de-de kasrati isti'mol bila Olacha bo'lubtur"* (Boburnoma. 2002; 40). Muallifning ma'lumotiga ko'ra, Sulton Mahmudxonning ukasi Sulton Ahmadxon bo'lib, u Bobur xizmatdagi xonlardan biri bo'lgan. «Boburning tog'asi Yunusxonning ikkinchi o'g'li. Zamondoshlari Olachaxonni kichik xon akasi Sulton Mahmudxonni esa ulug' xon ham deganlar. Shayboniy o'zbeklari Olachaxonni O'ljaxon deb atashgan. Bobur uning qalmoqlar va boshqa qabilalar ustidan ketma-ket g'olib bo'lgani uchun "Olochixon" (O'ldirguvchi xon) deb atalgani va bu laqab xalq og'zidan Olachaxonga aylanib ketganini yozgan" (Bobur ensiklopediyasi, 2014). Demak, Bobur Sulton Ahmadxonni tasniflar ekan, uni mohir xonlardan biri ekanligini ko'rsatib, janglarda ko'p kishilarni o'ldirgani, bu jihatdan boshqa xonlardan farqli ekanligini, uddaburon, jang sirlarini yaxshi biluvchi shaxsligini ham ta'kidlab o'tadi. Yuqoridagi parchadan birgina Sulton Ahmadxonni nima uchun *"Olachaxon"* deb ataganligini anglash bilan birgalikda, shaxs sifatida chaqqon ekanligi, xon sifatida mohirligi, jangchi sifatida har taraflama yetuk ekanligini bilishimiz mumkin.

"Boburnoma" matnida odamlarning o'y-sanosi, ichki dunyosi, shaxslarga berilgan nomlar va ularning kelib chiqish ifodalarini so'z bilan, ayniqsa, boburona ifoda bilan yetkazib berish hamma vaqt ham birday oson kechmaydi. "Boburnoma" matnida ko'plab toponimlar va antroponimlarning shunday nom bilan atalishiga oid ma'lumotlar va tasvirlar keltirilgan. Toponimlar va antroponimlar faqatgina qadimiy turkiy tildagina emas, hind, fors, arab, urdu va boshqa tillarda ham ifodalangan.

O'zbek tilida ifoda etilgan kishi nomlari atoqli otlar bo'lib, o'zbek antroponimiyasining bir qismidir. "Boburnoma"ni mutolaa qilayotganimizda juda ko'p shaxslarni ismlari keltirilganligini ko'ramiz. Ismlar shaxslarning xarakter va ruhiy holatlarini ifodalash uchun xizmat qilganligini guvohi bo'lamiz. "Boburnoma" matnida ismlar bilan birga laqablar ko'p ishlatiladi. Laqablar esa shaxslarning xarakterlaridan tashqari, yashash joyi va sharoitlariga bog'liq holda qo'yilishi mumkin. Haqiqatdan ham boburona uslubda shaxslarning ismlari bilan birgalikda laqablar keltirilganligini, ular esa shu shaxsni biror qobiliyati jihatidan kim ekanligini ko'rsatib turadi. "Boburnoma"ni sahifalayotgan chog'imizda shoirilar, musiqachilar, allomalarning ismlari yonida taxalluslarga ham duch kelamiz. Taxalluslar kishilarning shoirona mahoratlari, ularning uddalay oladigan vazifalariga xos tarzda berilishi mumkin. Darhaqiqat, har bir

berilayotgan taxallusni muallif o'z o'rnida ishlatganligini, shaxslarni mohirona shaxsiyatini ochib berilganligini guvohi bo'lamiz. Bobur kishilarni nomlanishida o'zbekona odatlarning o'rni borligini ham albatta chetda qoldirmaydi. O'zbek xalqida o'ziga xos odatlardan biri shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi", "o'g'li") yordamida nomlash bo'lib, bunga ham dasturulamal rioya etganligini yuqorida keltirilgan shaxslarning ismi va laqablari misolida ko'rishimiz mumkin. Yana shu jihati ham xarakterliki, shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida ham amalga oshiriladi. Ismlarning bu jihatdan nomlanishi albatta o'z ifodasini topgan. Demak, atoqli otlarning onomastikasiga doir sifatlari "Boburnoma" asarida har tomonlama tasniflangan.

Ushbu misolga e'tibor qaratsak: *"Yana bir Qanbar Ali edi, mo'g'ul edi, axtachidin edi. Otasi viloyatqa kirib necha mahal salloqliq qilg'on uchun Qanbar Ali salloh der edilar. Yunusxon qoshida oftobachilik qildi, so'ngra bek bo'lub edi. Mening qoshimda xeyli ulug' roiyat topib edi. Ishga yetguncha ehtimomi yaxshi edi. Ishga yetgan mahalda qoltog'aylig'i bor edi. Purgo'y va parishongo'y edi. Muqarrardur har kimki ko'p aytur, parishon aytur. Havsulasi tor va tiyra mag'z kishi edi"* (Boburnoma. 2002; 42). Muallif Qanbar Alining obrazi va xarakterini tasniflar ekan, bu borada antroponimning muhim xususiyatlaridan biri shaxs ajdodlarining kasb-korlari orqali bir shaxsning boshqa bir shaxsdan ajratish yoki uning ota bobosi kim ekanligini bildirish maqsadida uning ismlariga turlicha laqablarni qo'shib qo'yadi. Birgina yuqoridagi misolda Qanbar Aliga salloh (salloh-mol so'yuvchi, qassob) so'zini qo'shish orqali bu laqab nima uchun qo'shilayotganligiga to'xtalib, uning otasini shu hunarga ega ekanligi, Qanbar Ali esa shu padari buzrukvorining farzand ekanligini ko'rsatib o'tadi (Ishoqov, 2008). Bu ham bo'lsa boburona uslubning qanchalik chuqur bilim, ko'nikma va ijodkor ekanligidan darak beradi.

E.Begmatovning fikriga ko'ra: "Antroponimlarni qadimiy tarix qa'ridan biz tomon yetib kelgan, o'tmish ajdodlarimizning bolani nomlash bilan borliq orzu-umidlari haqida bizga qimmatli xabarlar yetkazuvchi lisoniy vosita deb bilish ayni haqiqatdir. Biz yuqorida mana shunday xabarning bir qismi haqidagina fikr yuritdik. Holbuki, bu mavzu maxsus tadqiq qilishga arziydigan muammodir". (Begmatov, 2014). Tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida, haqiqatdan ham bu borada ilmiy ishlar kam qilingani, biz yuqorida ta'kidlagan fikrlar bugungi kun antroponimiya bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarga tayanch sifatida xizmat qilishiga amin bo'ldik. "Boburnoma" matnida uchraydigan ismlarni ayrimlari muallif oila a'zolarining ismlari bo'lsa-da, ko'p qismi bu asardagi voqealar tasvirida bevosita ishtirok etgan beklar, amirlar, xonlar, sarkardalar, saroy kishilari va boshqa asar qahramonlarining ismlaridir. Bu ismlar shaxslarga ota-bobo va oila a'zolari tomonidan qo'yilgan nomlardir, muallif esa ularning bir-birlaridan ajratish maqsadida shu jamoadagi kishini kim ekanligini tezda boshqalar ham farqlay olishini nazarda tutgan holda ularga laqablar ham qo'yib ketgan.

"Boburnoma" matnida: *"Yunusxonning ulug' qizi, mening onamning tuqqon egachisi edi. Yana bir tarxonlardin edi, Tarxonbegim derlar edi. Yana bir Qutuqbegim edi. Ushbu Tarxonbegimning ko'kaldoshi edi. Sulton Ahmad mirzo oshiqliqlar bila olib edi, asru ko'p suyuklik edi va ko'p musallit edi. Chog'ir ichar edi. Aning tirikligida Sulton Ahmad mirzo o'zga haramg'a bormas edi. Oxir o'lturdi va badnomlig'idin xalos bo'ldi"* (Boburnoma. 2002; 45), deb keltiriladi. Ushbu parchada Yunusxonning oilasi haqida ma'lumotlar berilib, uning qizlaridan biri qadimgi turkiy xalqlar unvoni sifatida qabul qilingan "tarxon" atamasi bilan bog'liq holda ism qo'yiladi. Muallifning fikriga ko'ra ular tarxonlardan bo'lib, shu unvon

sohiblarining qizi bo'lganligi, ajdodlarining kim ekanligini anglatib turish maqsadida qizlaridan biriga Tarxonbegim ismini qo'yganligini aytib o'tadi. *"Tarxon"* atamasi – o'rta asrlarda turkiy xalqlar davlatlarda joriy bo'lgan unvon. Bek, a'yon va harbiylarga katta xizmatlari uchun berilgan. Tarxonlar bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan. Jumladan, soliqlardan ozod etilgan, istagan paytida hukmdor huzuriga kirish, biron-bir masala yuzasidan to'qqiz martagacha murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan, hamda to'qqiz martagacha gunoh qilsa javobgarlikka tortilmagan (Bobur ensiklopediyasi, 2014). Ushbu keltirilgan fikrlardan ham muallifning Tarxonbegim ismini qo'yilishida ko'rsatgan sabab va omillari, bu ismning shakl va mazmun jihatidan mos ekanligiga yana bir bora iqrор bo'lishimiz mumkin. Bu jumlada Tarxonbegimning emikdoshi bo'lgan Qutuqbegim nomini ham tilga olib, Tarxonbegim bilan qanday yaqinligi borligini aytib o'tadi. Tarxonbegimning ismi tarixiga antroponimik jihatidan to'xtalib o'tsa-da, shu orada uning hayot tarzi haqida hikoya qilib ketadi. Bu tasvirni o'qigan kitobxon Tarxonbegim ismining qo'yilishi sabablarini bilish bilan birga, uning qaysi nasl-nasabga tegishli ekanligi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Muallifning bunday uslub bilan tasvirni berishi o'quvchini pragmatik xususiyatga ko'ra voqea tasvirini tez anglashi va aniq xulosaga kelishiga imkon yaratadi.

XULOSA

Zahiriddin Muxammad Boburning ijodiyotida bunday mukammallik bilan voqealarni tasvirlanishi, har bir detalga olimona fikr bilan yondashishi, uning asarlarini dunyoning ko'plab xorijiy tillariga tarjima qilinishiga, hamda rus va o'zbek tillarida Bobur haqida ko'plab ilmiy asarlar va monografiyalarining yaratilishiga sabab bo'lgan. Respublika olimlar jamoasining ensiklopedik asar ustida olib borgan tadqiqotlari Bobur ensiklopediyasining qayta-qayta nashr ettirilishiga olib kelishi ham buning isbotidir. *"Boburnoma"* dagi antroponimlarning tarjimalari va lingvistik tasniflarini o'rganishda xato va kamchiliklar ko'p, ularni bartaraf etish juda muhim va dolzarb masaladir. Antroponim va toponimlarning tavsifiy-analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, kognitiv-konseptual va statistik tahlili *"Boburnoma"* ning uch xil inglizcha J. Leyden – V. Erskin (1826), S. Beverij (1922), V. Tekston (1996) tarjimalaridagi antroponim va toponimlar, ularning lingvokulturologik, lingvopragmatik jihatlari tadqiq etilmagan va muqobillari ilmiy nuqtai nazardan kuzatilib, tahlil qilinmagan.

Yuqorida keltirilgan *"Boburnoma"* matnidan olingan parchalarda antroponimik birliklar va ularni o'zbek antroponimiyasida o'rganilishi borasida fikrlarimizni bildirib o'tdik. Tahlil jarayonida Boburning antroponimlarni barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan fikr va mulohazalarini o'rganib, asarda har bir kishining ismlari va ularga bog'liq bo'lgan ta'riflarni chuqur va falsafiy jihatdan ko'rsatib berganligiga amin bo'ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аҳмадалиев Ю. Топонимика ва географик терминшунослик. – Фарғона 2018. 17 б.
2. Алланов Қ. Бобур географик меросининг айрим қирралари. – Жайхун. 2008. 15 б.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан нашриёти, 2013. 24 б.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент, «Шарқ» 2014 – Б. 26.
5. Исҳоқов Ф. «Бобурнома учун қисқача изоҳли луғат». – Андижон, 2008 – Б. 8.
6. Бегматов Э. Исmlарнинг сирли олами. – Тошкент: Ўзбекистон. 2014 – Б. 40.